



TOPONIMIKANI NAZARIY VA AMALIY JIHATLARDA O'RGANISH: RIVOJLANISHI VA ILMIY TADQIQOTLAR

Ishanjanova M

Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti

Abdullayeva Mumtozabegim

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Anotatsiya: *Toponimikani nazariy va amaliy jihatlarda o'rganish geografik nomlarning tarixiy, lingvistik va madaniy kontekstda tahlil qilinishini anglatadi. Toponimikaning nazariy asoslari, semantik bo'linishi, shuningdek, amaliy toponimikaning xaritalar va nomlashdagi o'rni muhim tadqiqot mavzusidir. Ushbu fan sohasining o'rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki geografiya va tarix fanlari bilan ham chambarchas bog'liqdir.*

Kalit so'zlar: *toponimika, nazariy asoslari, amaliy toponimika, geografik nomlar, ilmiy tadqiqotlar, semantik bo'linish, tarixiy rivojlanish*

Jahon tilshunoslida H.A. Smit, A.L. Dauzat, G.J. Kopley, G.V. Lemon kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari toponimikaning fan sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. H.A. Smitning tadqiqotida toponimlarning nazariy asoslari ko'rib chiqilgan bo'lsa, A.L. Dauzat fransuz toponimlarining ma'no guruhlarini tahlil qilgan. G.J. Kopley joylarning umumiy va mashhur nomlari bilan bog'liq masalalarni o'rgangan, G.V. Lemon esa ingliz tilidagi toponimlarning etimologiyasiga oid fikrlarini bayon etgan.

D.E. Rozental va M.A. Telenko toponimikani "leksikologiyaning geografik nomlarni o'rganuvchi bo'limi hamda ma'lum bir hududning geografik nomlari jamlanmasi" deb ko'rsatganlar.

O'zbekiston va O'rta Osiyo toponimikasining o'rganilishi H. Hasanovning ilmiy faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Tilshunos va geograf olimi S. Qorayev



toponimika sohasining yetuk mutaxassislaridan biri hisoblanadi. U toponimika haqida "toponimika – joy nomlarini o'rganadigan fan, toponimiya esa geografik nomlar yig'indisi¹" deya ta'kidlagan. O'zbek onomastikasi masalalarida muhim tadqiqotlarni amalga oshirgan E. Begmatov va N. Uluqovlarning lug'atida toponim va unga aloqador atamalar keng ko'lamma tushuntirilgan. Olimlar lug'atda toponimga quyidagi ta'rifni bergen: "Yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan tabiiy-geografik va sun'iy (inson tomonidan yaratilgan) obyektlarning nomlari: oykonim, oronim, spéléonim, xoronim, urbanonim, drimonim, nekronim va boshqalar²" toponimlarni hosil qiladi.

Geografik obyektlarning atamashunoslikdagi umumiyligi nomi toponim bo'lib, bu atama asosida toponimiya va toponimika kabi tushunchalar vujudga keladi. Ushbu tushunchalar tegishli hududlarda yashovchi millat va xalqlarning o'tmishi, tarixiy rivojlanishi hamda etnik xususiyatlarini aks ettirib bir-birini to'ldiradi.

Toponimlar turli sohalar va fanlar tadqiqotchilarining e'tiborini tortadi. Ayrim tillarning tarixiy va genealogik jihatlari bilan shug'ullanadigan, shuningdek, umuman til taksonomiyasini o'rganadigan tilshunoslar geografik nomlarga qiziqish bildiradilar, chunki ba'zi toponimlar qadimgi tillarning elementlarini o'z ichiga olishi mumkin. Bu olimlar uchun yangi nazariyalarni ishlab chiqish va mavjud farazlarni sinab ko'rish imkoniyatini ochadi. Xuddi shunday, tarixchilar toponimik tadqiqotlardan xalqlarning qadimgi migratsiyasi izlarini aniqlash va o'tmishdagi madaniy almashinuv xususiyatlarini o'rganish uchun foydalanadilar. Bundan tashqari, toponimlar aholi punktlari tarixi, hududlarning rivojlanishi, ibridoiy aholining iqtisodiy faoliyati, siyosiy voqealar, folklor va ijtimoiy-maishiy sharoitlar to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlashi mumkin. Bu holda adabiy manbalarda ilgari tilga olinmagan odamlarning so'zlari va ismlarini (antroponimlar) o'z ichiga olgan lingvistik ma'lumotlarni olish mumkin.

Topograflar va kartograflar toponimikaga amaliy nuqtai nazardan qiziqishadi, chunki ularning asosiy vazifasi xaritada ko'rsatish uchun ob'ektlarning to'g'ri

¹ Qorayev S. Toponimika: o'quv qo'llanma/ S. Qorayev. — T.: «O'zbekiston faylasufbri milliy jamiyati nashriyoti», 2006. — 320 b.

² Begmatov E.A., Uluqov N.M. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. Namangan, 2006. — 103 b.



nomlarini aniq aniqlash va tuzatishdir. Ushbu mutaxassislar geografik nomlarni keng ma'noda o'rghanish bilan shug'ullanmaydilar, balki xaritalash amaliyotida nima to'g'ri yoki noto'g'ri deb hisoblanishini belgilaydigan qoidalar va standartlarni ishlab chiqishga e'tibor berishadi. Ular xorijiy joy nomlarining amaliy transkriptiyasini o'z ichiga olgan amaliy toponimikada ishtirok etadilar. Amaliy toponimikaning asosiy vazifalaridan biri toponimlarning yozilishi va talaffuzini normallashtirish, ularni birlashtirish va standartlashtirishdir. Amaliy toponimikaning o'ziga xos jihatlari chuqur lingvistik bilimlarni talab qilmasa ham, o'r ganilayotgan mintaqasi doirasidagi joy nomlarining lingvistik va tarixiy kontekstini asosiy tushunishga ega bo'lish kerak.

A.P. Neroznak geografik nomlar (toponimlar), ularning ma'nosi, kelib chiqishi, tuzilishi va vaqt o'tishi bilan ularning ishlashi, tarqalishi va o'zgarishini o'r ganadi³. Olimning tadqiqida toponimika geografiya, tarix yoki tilshunoslikning bir qismi ekanligini to'g'ridan-to'g'ri eslatib o'tilmasa ham, kontekstdan kelib chiqadiki, u aynan lingvistik sohani nazarda tutadi.

A.I. Popov o'zining "geografik nomlar (toponimikaga kirish)" asarida toponimika tilshunoslikning bir qismi ekanligini va har bir tilda o'ziga xos tamoyillar va qiziqishlarga ega bo'lgan alohida bo'lim ekanligini ta'kidlaydi. Bu, birinchi navbatda, tilshunoslik fani sifatida tan olinishi mumkin, deya e'tirof etadi⁴.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Qorayev S. Toponimika: o'quv qo'llanma/ S. Qorayev. — T.: «O'zbekiston faylasufbri milliy jamiyati nashriyoti», 2006. — 320 b.
- 2.Begmatov E.A., Uluqov N.M. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. Namangan, 2006. – 103 b.
- 3.Нерознак А.П. Топонимика / А.П. Нерознак // Лингв. энцикл. слов / гл. ред. В.Н. Ярцева [Текст] / А.П. Нерознак. – М., 1990. – С. 515–516.
- 4.Попов А.И. Географические названия (введение в топонимику) [Текст] /А.И. Попов. – М.; Л.: Наука, 1965. – С. 182.

³ Нерознак А.П. Топонимика / А.П. Нерознак // Лингв. энцикл. слов / гл. ред. В.Н. Ярцева [Текст] / А.П. Нерознак. – М., 1990. – С. 515–516.

⁴ Попов А.И. Географические названия (введение в топонимику) [Текст] /А.И. Попов. – М.; Л.: Наука, 1965. – С. 182.



5. Munosibkhan, I., & Mumtoza, A. (2023). Formation Of Intercultural Communication Competence In Preschool Children. *Journal Of Language And Linguistics*, 6(4), 167-170.
6. Ишанжанова, М., & Қўчқарова, О. Макон Ифодаловчи Дейктик Бирликларнинг Морфологик Тадқиқи. Ўзбекистон Республикаси Олий Ва Ўрта Махсус Таълим Вазирлиги Захириддин Муҳаммад Бобур Номидаги Андижон Давлат Университети, 270.
7. Ишанжанова, М. С. (2021). Макон” ни ифодаловчи дейктик бирликларнинг чоғиштирма тадқиқи (француз ва ўзбек тилларида матнлар таҳлили мисолида) Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссерт.
8. ИШАНЖАНОВА, М. ШАХС ДЕЙКСИСИНИНГ НУТҚИЙ МУЛОҚОТДА ИФОДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *ILMIY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК* Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура,(1), 92-95.